

O‘ZBEKISTONDA BUKMEKERLIK FAOLIYATIDA ISHTIROK ETISHI TAQIQLANGAN SHAXSLAR TOIFALARINING HUQUQIY MAQOMI

Olimov Ikromxon Rustam o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti Sport huquqi

yo‘nalishi magistratura bosqichi talabasi

ikromxonolimov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisdagi O‘zbekiston Respublikasida internet tarmog‘idagi tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar, lotereya va bukmekerlik garovlarida ishtirok etishi taqiqlangan shaxslar toifalarining huquqiy maqomi tahlil qilinadi. Xususan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar, voyaga yetmaganlar hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlariga nisbatan joriy etilgan cheklovlarning maqsadi va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, mazkur cheklovlarning xalqaro tajribadagi o‘xshash jihatlari va ularni qo‘llash bilan bog‘liq ayrim huquqiy masalalar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar, lotereya, bukmekerlik, huquqiy tartibga solish, ijtimoiy himoya.*

KIRISH

Zamonaviy raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bilan birga, internet tarmog‘idagi tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar, lotereya va bukmekerlik garovlari keng ommalashib bormoqda. Bukmekerlik faoliyatini legallashtirish katta soliq tushumlari va iqtisodiy imkoniyatlar yaratishi mumkin bo‘lsa-da, u iste‘molchilar himoyasi, moliyaviy jinoyatlar, tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlariga qaramlik va sport musobaqalarining halolligi bilan bog‘liq jiddiy xavotirlarni ham keltirib chiqaradi. O‘zbekiston Respublikasi ushbu sohadagi xavflarni kamaytirish maqsadida izchil huquqiy islohotlarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PF-68-son “Lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazishni tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-dekabrda 814-son qaroriga muvofiq, mazkur soha yangi huquqiy asosga ega bo‘ldi. Ushbu tezisning maqsadi ham O‘zbekiston Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2025-yil 25-iyundagi 13-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan taqiqlanganlar toifalari ro‘yxatining huquqiy va ijtimoiy mohiyatini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, mazkur ro‘yxat fuqarolik jamiyatini himoya qilish, davlat xizmatchilarida manfaatlar to‘qnashuvi oldini olish va zaif ijtimoiy guruhlarini muhofaza etishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

TADQIQOT USULLARI

Tadqiqot davomida normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, qiyosiy-huquqiy tadqiqot, tizimli tahlil hamda ilmiy manbalarni o'rganish usullaridan foydalanildi. Asosiy manbalar sifatida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Prokuratura to'g'risida"gi, "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi, "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi hamda "Qo'riqlash faoliyati to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PF-68-son "Lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishni tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-dekabrdagi 814-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishni tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 19-apreldagi PF-68-son Farmoni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2025-yil 25-iyundagi 13-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Internet tarmog'idagi tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar, lotereya va bukmekerlik garovlarida qatnashishi taqiqlangan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va chet el fuqarolarining toifalari" ro'yxati o'rganildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2025-yil 25-iyundagi 13-son buyrug'i bilan tasdiqlangan ro'yxat to'qqiz toifani o'z ichiga oladi. Ushbu toifalarni uch asosiy guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh — ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar. Muomalaga layoqatsiz yoki layoqati cheklangan shaxslar (1-toifa), ijtimoiy reyestrغا kiritilgan va "Temir daftar", "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari"ga kiritilgan shaxslar (2-3-toifalar), shuningdek voyaga yetmaganlar (4-toifa). Mazkur norma davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlanayotgan aholi qatlamlarini ortiqcha moliyaviy tavakkalchiliklardan himoya qilish maqsadini ko'zlaydi. Xalqaro tajribada voyaga yetmaganlarning qimor va bukmekerlik faoliyatida ishtirok etishiga nisbatan qat'iy cheklovlar mavjud. Jumladan, Buyuk Britaniyada tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarning aksariyat turlarida ishtirok etish uchun minimal yosh 18 yosh etib belgilangan.¹ O'z navbatida, Niderlandiyada 2025-yilda hukumat tomonidan yuqori bukmekerlik garovlarida ishtirok etish uchun minimal yosh chegarasini 21 yoshga oshirish tashabbusi ilgari surilgan.²

¹ UK Gambling Commission. *Gambling and young people*. <https://www.gamblingcommission.gov.uk/public-and-players/guide/gambling-and-young-people>

² Dutch Government initiative on online gambling reform: *Kabinet neemt maatregelen tegen online gokken, minimumleeftijd naar 21 jaar*. <https://nos.nl/artikel/2555814-kabinet-neemt-maatregelen-tegen-online-gokken-minimumleeftijd-naar-21-jaar>

Ikkinchi guruh — davlat xizmatchilari va harbiy xizmatchilar. Prokuratura, ichki ishlar, milliy gvardiya va bojxona organlari xodimlari (5-toifa), harbiy xizmatchilar (6-toifa) hamda qo‘riqlash bo‘linmalari xodim va xizmatchilari (7-toifa) uchun ham cheklovlar nazarda tutilgan. Ular uchun taqiq manfaatlar to‘qnashuvi oldini olish va korrupsiya xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Xalqaro amaliyot shuni ko‘rsatadiki, huquq-tartibot organlari xodimlariga nisbatan mazkur cheklovlar manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, davlat xizmatining xolisligi va obro‘sini ta‘minlashga qaratilgan.³

Uchinchi guruhni esa maxsus toifalar sifatida ajratishimiz mumkin. Istiqbolli loyihalar milliy agentligi xodimlarining ham ushbu faoliyatda ishtirok etishi taqiqlangan. Chunki mazkur organ bukmekerlik va lotereya faoliyatini tartibga soluvchi vakolatli organ hisoblanadi. Shu sababli tartibga soluvchi organ xodimlarining o‘yinlarda ishtirok etishi manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, xorijiy davlatlar vakolatli organlarining O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali ularning fuqarolarini O‘zbekiston Respublikasi hududida tashkil etilgan Internet tarmog‘idagi tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar, lotereya va bukmekerlik garovlarida qatnashishini taqiqlash bo‘yicha so‘rovlari asosida chet el fuqarolari (9-toifa) uchun ham O‘zbekiston hududida tashkil etilgan bukmekerlik garovlarida ishtirok etishga cheklov qo‘yilishi mumkinligi nazarda tutilgan.⁴

Mazkur cheklovlar xalqaro tajribaga ham mos keladi. Jumladan, Yevropa ittifoqi davlatlarida ham voyaga yetmaganlar, ayrim davlat xizmatchilari hamda himoyaga muhtoj aholi qatlamlari uchun o‘xshash cheklovlar mavjud.⁵ Biroq O‘zbekistonning o‘ziga xos tomoni ijtimoiy reyestruga kiritilgan va “Temir daftar”, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari”ga kiritilgan shaxslarga nisbatan taqiqning joriy etilishidir, bu esa ularni qo‘shimcha moliyaviy tavakkalchilikdan himoya qilishga qaratilgan deb baholash mumkin.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasida internet tarmog‘idagi tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar va bukmekerlik faoliyatini tartibga solish tizimida ayrim shaxslar toifalari uchun joriy etilgan cheklovlar ijtimoiy himoya, mas’uliyatli o‘yin tamoyillarini ta‘minlash hamda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ushbu normalarni amaliyotda samarali qo‘llash uchun o‘yinchilarni identifikatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish va nazorat tizimini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birga, ro‘yxatni amaliyotda tatbiq etish uchun identifikatsiya mexanizmlari, ma’lumotlar bazalari integratsiyasi,

³ United Nations Office on Drugs and Crime. United Nations Convention against Corruption (UNCAC). New York, 2004. Articles 7–8

⁴ Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.07.2025-y.

⁵ European Gaming and Betting Association. *European Safer Gambling Standards*. Brussels, 2024

taqiqlangan shaxslarni avtomatik bloklash tizimini yaratish va onlayn platforma operatorlari bilan hamkorlik tizimini yanada takomillashtirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2025.
2. O'zbekiston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi Qonuni – <https://www.lex.uz/docs/-106197>
3. O'zbekiston Respublikasining “Davlat bojxona xizmati to'g'risida”gi Qonuni – <https://www.lex.uz/docs/-4000640>
4. O'zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida”gi Qonuni – <https://www.lex.uz/docs/-78717>
5. O'zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi Qonuni – <https://www.lex.uz/docs/-3027843>
6. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida”gi Qonuni – <https://www.lex.uz/docs/-5128310>
7. O'zbekiston Respublikasining “Qo'riqlash faoliyati to'g'risida”gi Qonuni – <https://www.lex.uz/docs/-6066682>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PF–68-son “Lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishni tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni – <https://www.lex.uz/docs/-6899273>
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-dekabrdagi 814-son “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi PF–68-son Farmoni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori – <https://www.lex.uz/docs/-7257887>
10. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2025-yil 25-iyundagi 13-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “Internet tarmog'idagi tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar, lotereya va bukmekerlik garovlarida qatnashishi taqiqlangan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va chet el fuqarolarining toifalari ro'yxati” – <https://www.lex.uz/docs/-7615030>
11. United Nations Office on Drugs and Crime. United Nations Convention against Corruption (UNCAC). New York, 2004.
12. European Commission. Commission Recommendation 2014/478/EU on principles for the protection of consumers and players of online gambling services and for the prevention of minors from gambling online. Official Journal of the European Union, 2014.
13. UK Gambling Commission. Gambling and Young People: Guidance and Regulatory Framework. London, 2025.

<https://www.gamblingcommission.gov.uk/public-and-players/guide/gambling-and-young-people>

14. Dutch Government. Policy Measures on Online Gambling and Player Protection. The Hague, 2025. <https://nos.nl/artikel/2555814-kabinet-neemt-maatregelen-tegen-online-gokken-minimumleeftijd-naar-21-jaar>